QASHQADARYO VILOYATI MUBORAK TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 12-iyul 254-4-64-Q/24 Muborak tuman hokimligi

Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

2024-yilda Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in kelib chiqishining hamda tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida, Muborak davlat o‘rmon xo‘jaligining 2024-yil 20-iyundagi № 78-sonli xatini inobatga olib, O’zbekiston Respublikasining “O’rmon to‘g‘risida”gi Qonuni va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qaroriga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan;

Q A R O R Q I L A M A N :

1. 2024-yilning yoz, kuz fasllarida Davlat o‘rmon fondi yerlarida va qo‘shni fermer xo‘jaliklari hamda fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

2. Muborak Davlat o‘rmon xo‘jaligi bo‘limlarida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari 1-ilovaga, favqulotda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Muborak Davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Xudoyqulov) Hotam, Hayit yotoq, Yangi ariq o‘rmon bo‘limlari (A.Kazakov), “Yashnaobod” MFY (Sh.Shonayev), Qoraqum MFY (A.Munavvarov), Obod turmush MFY (X.Yo‘ldoshev), “Xitoy” MFY (X.Eshmamatov) “Muborak” MFY (B.Hamrayev) yong‘in xavfini oldini olishning barcha tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha mas’ulligi belgilab qo‘yilsin.

4. Muborak Davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Xudoyqulov), Muborak tuman FVB boshlig‘i podpolkovnik (J.Yuldashev), tuman tibbiyot birlashmasi (N.Murtazayev),

“O’ztelekom” AK Muborak tuman filiali (Sh.Bozorov), Hotam, Hayit yotoq, Yangi ariq o‘rmon bo‘limlari (A.Kazakov), “Yashnaobod” MFY (Sh.Shonayev), Qoraqum MFY (A.Munavvarov), Obod turmush MFY (X.Yo‘ldoshev), “Xitoy” MFY (X.Eshmamatov) “Muborak” MFY (B.Hamrayev) birgalikda Davlat o‘rmon fondida yong‘in sodir bo‘lganda, tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskunalar va oziq-ovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Muborak Davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Xudoyqulov), Muborak tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasi bo‘yicha nazorat inspeksiyasi (M.Normurodov), tumandagi “Yashnaobod” MFY (Sh.Shonayev), Qoraqum MFY (A.Munavvarov), Obod turmush MFY (X.Yo‘ldoshev), “Xitoy” MFY (X.Eshmamatov) “Muborak” MFY (B.Hamrayev) raislariga o‘rmon xo‘jaligi yer fondiga yaqin aholiga o‘rmon xo‘jaligi fondi yerlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda “O’rmon to‘g‘risida”gi va “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror OAVda e’lon qilinsin.

7. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Muborak tumani hokimining 2023-yil 26-iyundagi 226-4-64-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Maxatov zimmasiga yuklatilsin.

9. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **M.K.Xayitmuradov**

Muborak tuman hokimining
2024-yil 12-iyuldagi
254-4-64-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidagi Davlat o‘rmon fondi erlarida yong‘iga qarshi kurash tadbirlari.

1.O’rmonlarda va o‘rmon bilan qoplangan Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsan javobgarlikni his etish, yong‘in bo‘lish ehtimoli kuchli davrda belgilangan yong‘in xavfsizligi ishlarini bajarish, Davlat o‘rmon fondi yerlarida chiqqan yong‘inni tezkorlik bilan o‘chirish va bu to‘g‘risida kerakli tashkilotlarga tezlik bilan xabar qilish.

Bajaradi: O’rmon xo‘jaligi va Fuqarolar yig‘inlari.

Muddati: Mavsum davomida

2.O’t-o‘lan bilan qoplangan yerlarda, qamishzorlar, o‘rmonzorlar yaqinida shamolli ob-havoda gulxan yoqishni ta’qiqlash, yonib turgan narsalarni tashlash uchun maxsus joylarni tashkil qilish.

Bajaradi: Tuman FVB, O’rmon xo‘jaligi va Fuqarolar yig‘inlari.

Muddati: Mavsum davomida

3.Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in chiqqan holda, yong‘in chiqqan joyga ko‘ngilli yong‘in o‘chirish bo‘linmalarini, belgilangan yong‘in o‘chirish ishchi kuchlarini o‘z vaqtida yetkazish, texnika va yong‘inga qarshi transport bilan ta’minlashni to‘g‘ri va aniq tashkil qilish.

Bajaradi: Tuman FVB, O’rmon xo‘jaligi, Fuqarolar yig‘inlari va fermer xo‘jaliklari.

Muddati: Mavsum davomida

4.Chorva mollari boqiladigan, ov qilinadigan, beda o‘riladigan o‘rmonlarda, bolalar oromgohlarida, dam olish zonalarida va geologik qidiruv ekspeditsiyalarida komplektlangan yong‘in o‘chirish qurollarini bo‘lishini nazorat qilish, Davlat o‘rmon fondi yerlariga yaqin yerlarda va unga olib boruvchi yo‘llar yoqasiga olovdan ehtiyotlik bilan foydalanishga chaqiruvchi, yong‘in chiqish xavfidan ogohlantiruvchi belgilarni qo‘yish.

Bajaradi: Tuman FVB, O’rmon xo‘jaligi va Fuqarolar yig‘inlari.

Muddati: Mavsum davomida

5.Ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda Davlat o‘rmon qo‘riqchilariga shahar va qishloq aholisi o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish mavzularida targ‘ibot ishlarini olib borish.

Bajaradi: O’rmon xo‘jaligi va Fuqarolar yig‘inlari.

Muddati: Mavsum davomida

6.Davlat o‘rmon fondi yerlarida ish olib boruvchi yoki o‘rmonlarda ba’zi ob’ektlarga ega bo‘lgan hamda o‘rmon fondi yerlarini ma’lum muddatga ijaraga olgan xo‘jaliklar, tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari va aholining mavsumga tayyorgarliklarini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni birgalikda hal etish hamda qat’iy choralar ko‘rish.

Bajaradi: Tuman FVB, O’rmon xo‘jaligi.

Muddati: Mavsum davomida

7.Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzuvchilarni tezkorlik bilan aniqlash, ularning ustidan zudlik bilan tegishli hujjatlarni tuzib, keltirilgan zararni undirib olish choralarini ko‘rish, yong‘inga qarshi kurash maqsadida tezkorlik bilan harakat qiluvchi guruh tuzish, uni harakat yo‘nalishini belgilash va shu mavzuda seminarlar tashkil qilish.

Bajaradi: Tuman FVB, O’rmon xo‘jaligi.

Muddati: Mavsum davomida.

Muborak tuman hokimining
2024-yil 12-iyuldagi
254-4-64-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2024-yilda Muborak Davlat o‘rmon xo‘jaligining Yangi ariq, Hotam, Xayit yotoq bo‘limlarida hamda Yashnaobod, Qoraqum, Obod turmush, Xitoy, Muborak MFY hududlarida favqulotda holatlarda yong‘inni o‘chirish

R e j a s i

t/b	Muborak tumani	Joylashadigan aholi		Yong‘inga qarshi o‘chirish asboblari			O’rmon bo‘limining nomi	Texnikalar soni	Shundan suv tashish mashinasi	Kerakli narsalarni yuboradigan joyi	Tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etishda javobgar shaxs	Yong‘in bo‘ladigan joyda aloqani tiklash bo‘yicha javobgar shaxs	O’rmon bo‘limi boshliqlarining F.I.SH	Yong‘inni o‘chirish bo‘yicha javobgar shaxs	Texnika va yong‘in o‘chirish asbob uskunalarini olish joyi
		Jami	Shundan yong‘in o‘chirishga	bolta	arra	belkurak									
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**
1	Yashnaobod	2700	2700	850	800	1050	Hotam	1	0	Fuqarolar yig‘ini			A.Kazakov		O’rmon xo‘jaligi, mahalla fuqarolar yig‘ini hamda jamoat shirkat xo‘jaliklari omborlari
2	Qoraqum	4087	4087	1300	1287	1500	Yangi ariq	1	0	Fuqarolar yig‘ini			A.Kazakov		

3	Obod turmush	2337	2337	777	660	900	Hayit yotoq	1	0	Fuqarolar yig‘ini	Muborak tuman tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘limi	Muborak tuman elektr tarmoqlari	A.Kazakov	Bosh o‘rmonchi	
4	Xitoy	2242	2242	750	730	762		1	0	Fuqarolar yig‘ini					
5	Muborak	2156	2156	728	730			1	0	Fuqarolar yig‘ini					
	Jami:	**13522**	**13522**	**4405**	**4207**	**4910**	**0**	**5**	**0**	**0**	**M.Ravshanov**	**I.Norbo‘tayev**	**0**	**Sh.Xudoyqulov**	**0**